



## O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SAN'ATI: MADANIY KONTEKST VA YANGI UFQLAR

Yuldashev Sarvar

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
"Rangtasvir" kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14921261>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 20-Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Fevral 2025 yil

### KEYWORDS

*Konseptual, diagrammalar, grafik, Art and language, Video art, Eksperimental, Eko art, Graffiti va strit art, inkuzart*

### ABSTRACT

*Мазкур мақола, Ўзбекистонда замонавий санъат тушунчасининг талқини, унинг бугунги кундаги жараёнлари ва бу йўналишда ижод қилаётган ижодкорларга бағишланган. Шунингдек замонавий санъат тушунчаси, унинг яратилиши тарихи ҳақида қисқача маълумотлар келтирилди*

Davlat rahbari tomonidan san'at va madaniyat hamda uning tarkibiy qismi bo'lmish badiiy ta'limga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida yurtimiz tasviriy va amaliy san'ati, muzeyshunoslik, dizayn sohalarida ulkan o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda.

Zamonaviy san'at bugun rassomning qobiliyatlarini rad etmoqda, bu yo'nalishda endilikda g'oya va ifoda eng muhim masalaga aylanib ulgurdi.

Konseptual san'at, konseptualizm (lot. conceptus – fikr, tasvirdan) – XX asrning 60-yillari oxiri – 70-yillari boshlarida Amerika va Yevropada shakllangan postmodernizmning adabiy yo'nalishi hisoblangan. Ushbu yo'nalishga obyektlar iboralar, matnlar, diagrammalar, grafik chizmalar, fotosuratlar, audio va video materiallar kirishi mumkin. Har qanday buyum, hodisa, jarayon san'at obyektiga aylanishi mumkin. Ushbu yo'nalishdagi asar rassomning kayfiyati, olami, his-hayajonlari haqida gapiradi. "Bugungi zamonaviy usuldagi rangtasvirlar tushunarsiz, uni yosh bola ham chiza oladi, bu turdagi kartinalar tomoshabinda zavqlanish tuyg'usini uyg'otmaydi" degan tanqidlarni qo'yib, ijodkor uchun ijobiy jihatlarga to'xtaladigan bo'lsak;

- o'z olami, o'z dunyoqarashini namoyish eta boshlaydi,
- tasviriy san'at olamida o'z yo'nalishini tez topishiga zamin yaratadi,
- o'z ijodi orqali tashqi olam haqidagi fikrlarini baralla aytishni boshlaydi,
- hayotga bo'lgan qarashlar o'zgaradi.

1960-yillarda "Art and language" guruhi rassomlari bilan harakatning asoschilaridan biri, amerikalik rassom Jozef Koshut konseptualizmning ahamiyatini "san'at asari qanday ishlashini yoki madaniyatning o'zi qanday tushunilishini tubdan qayta ko'rib chiqishda" ko'rdi ... materialning emas, balki g'oyaning kuchi".

Haligacha konseptualizmning klassik namunasi "1+3 stul" (1965) kompozitsiyasi hisoblanadi. Stul, uning fotosurati va lug'atdagi narsaning tavsifini o'z ichiga oladi. Konseptual san'at, hissiy idrok etishni emas, balki ko'rinadigan narsalarni intellektual tushunishni anglatadi degan g'oya mavjud. Konseptualizm hech qachon yagona tendensiya bo'lmagan. Konseptualizm bir necha san'at turlarini umumlashtiruvchi tushunchadir. San'at estetik jihatdan yoqimli bo'lishi kerak degan fikrni rad etadi. Konseptualizm g'oyalari ko'p hollarda vaqtinchalik konstruksiyalar va obyektlar (installyatsiyalar)da namoyish etiladi. Lekin bu yo'nalish bugun landshaft san'ati bilan uyg'unlikda rivojlanib borayotganligi sababli, ular uzoq muddatli, pishiq asoslarda ham talqin qilinmoqda.

Bugun san'at olamini tajribalar sahnasiga qiyoslash mumkin. Aynan tasviriy san'atning barcha turlarida g'arb va Sharq talqini aksariyat hollarda esa, o'z chegaralaridan chiqib borayotgan konseptual san'at namoyishlariga guvohi bo'lmoqdamiz. Hammaga ma'lumki, rangtasvirda yangiliklar yaratishning chegarasi yo'q. Ammo zamonaviy qarashlar ohangida millatning tarixi, an'ana va qadriyatlari bilan o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishi lozim. Bu ijodkorning ijodiga mazmun, g'oya va o'ziga hos ijod shavqini taqdim etadi.

Mustaqillik rassomlar qarashlarida tarix, milliy va ma'naviy qadriyatlarni tasvir va shakllarda aks ettiruvchi, o'ziga hos ijodiy bir davrni boshlab berdi. Shu borada aytish mumkinki xalqning bugungi ma'naviy va siyosiy qarashlarida erkinlikning berilishi, ta'qiqlangan yo'nalishlarda qayta jonlanishni vujudga keltirdi va bu yo'lda davom etmoqda deyish mumkin. Bu esa o'z-o'zidan yangi ifoda va tasvir shakillarini taqdim etmoqda.

Qisqa qilib aytganda an'anaviy san'at yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda va buning natijasida ko'plab yangi yo'nalishlar vujudga kelib ulgurdi. Jumladan aynan O'zbekiston san'atida ko'p murojaat etilayotgan yo'nalishlarni olib qaraymiz:

-Raqamli media san'ati.

Video art san'ati – interaktiv video mahsulotlari

NFT san'ati – shifrlangan raqamli rasmlar.

Video art yo'nalishida o'zbek rassomlaridan Jamol Usmonov ijodi o'ziga hosligi, qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. Rassom asarlari allegoriyaga boyligi, o'zining ijodi orqali Tasavvuf falsafasini talqin etganligi bilan aamiatlidir. Ijod bilan eksperimentni parallel ravishda olib boruvchi rassomlar sarasiga kiradi. Bugungi kun zamonaviy san'ati ham aynan shu xususiyatlarni talab etmoqda. Musavvir uchun g'oyani polotnoda tasvirlashning o'zi kamlik qildi va o'z fikrlarini shakl, musiqa va yorug'likda ifoda etishni boshladi. "Yo'l", "Ko'zgu", "Ma'rifat vodiysi", "Aks" ana shunday video-art namoyishlarida ham musavvir badiiy merosimizdan biri Umar Hayyom asariga ham murojaat qilganini ko'rish mumkin. Rivoyatga ko'ra, Hindistonga borib qaytgan ko'zi ojizlardan fil haqidagi taassurotlari va u haqidagi tasavvurini so'raydilar shunda, filni paypaslab ko'rgan ko'zi ojizlardan biri oyog'ini - ustunga, qornini - behi ustun qoyasiga, xartumini - ajdarga, tishlarini - ikkita suyakka, dumini - ilonga, quloqlarini - yelpig'ichlarga o'xshatadi. Har biri o'zicha xaq. Ya'ni har bir insonning o'z haqiqati, biror bir hodisa yoki voqelikka o'z tasavvuri va fikri mavjudligi haqida urg'u beriladi.

-Eksperimental rangtasvir va haykaltaroshlik.

Miks texnikasi asosida – bunda muallif bo'yoqlar yoki buyumlardan kollaj uslubini qo'llagan holda san'at namunasini yaratadi.

Bio art – tirik homashyolar, o'simliklardan foydalangan holda yaratilgan san'at namunalari

-Eko art.

Lend-art – tabiiy muhitda yaratilgan namunalari, haykaltaroshlik namunalari. Ular qum, tosh, shoh-shabbalar va yana boshqa homashyolar bo‘lishi mumkin.

Installyatsiya – ekologik yoki ijtimoiy muammolarga urg‘u beruvchi yo‘nalish.

Mamlakatimizda installyatsiya yo‘nalishida ko‘plab rassomlar o‘z asarlarini yaratganlar. Ko‘p xollarda ularni falsafiy yo‘nalishlar bilan birga tasavvuf, so‘fiylik peshvolari darveshlar, pirlar obrazlariga o‘qarashlaridan kelib chiqqan holda o‘zicha talqin qilmoqdalar. Jamol Usmonov installyatsiyalaridan “Tashnalik”, “Qalb parvozi”, “Hayot daraxti”, “Yo‘l”, “Fitna” kabi art obyektlarni, Fayzulla Axmadaliyevning “Sardoba, Umar Hayyom yulduzlari”, “Yassaviyga bag‘ishlov”, kabi installyatsiyalarni, Nuriddin Rasulovning “Besh kunlik dunyo”. va Nazira Qo‘ziyevaning kulolchilik yo‘nalishidagi installyatsiyalarini aytib o‘tish mumkin. Shuningdek, Tatyana Fadeyeva, “5+1” guruhi ijodkorlari tomonidan yaratilgan obyektlar, Diyor Roziqov va yana ko‘plab ijodkorlarni sanab o‘tish mumkin.

Jumladan, Nazira Qo‘ziyeva jodkor kullollardan biri bo‘lib, o‘zining noan‘anaviy kulolchilik namunalarini taqdim etib kelmoqda. Nazira Qo‘ziyeva ijodi nozik plastika, shakllarning yengilligi, tasvirlarning nafisligi bilan ajralib turadi. Uning har bir asari aloxida, mustaqil asar bo‘lib, har biri dekorativ individualligiga ega. U tayyorlagan sopol buyumlarda loyning tabiiy xolatini xis qilgan holda shakllarga ijodiy yondashib noan‘anaviy kulolchilik asarini yaratadi. Uning bezaklarida Sharqning sokin va kamtarlik falsafasi sezilib turadi. Serqirra ijodkor nafaqat noan‘anaviy kulolchilikda balki, zamonaviy san‘atda o‘z so‘zi va fikrlarini namoyon etuvchi installyatsiya asarini ham yaratib kelmoqda. Kulol falsafa va shakllar uyg‘unligida o‘z dunyosini moxirona yuzaga chiqaradi.

Rassom qushlar, ularni qanday ilohiy jonzot ekanligi va har-bir xalqning qushlarga bag‘ishlangan afsonalari borligi haqida to‘xtalgan holda “AVES” ko‘rgazmasining markazida “Istalganga erishish” asari joy olgan. Bir tomondan Alisher Navoiyning “Qushlar tili” she‘riga ishora qiladi. Hikoyaga ko‘ra, qushlar to‘dasi mukammal “qushlar hukmdori”ni qidirish uchun Abadiylik yurtiga boradi. Ekspozitsiyada qushlar Simurg‘ning mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lgan xalqa tasvirlangan bezakli idish o‘rin olgan. U yerda Simurg‘ni eslatuvchi qanotli jonivorning o‘zi va tukli sargardonlar bor. Kulolning aytishicha, qushlar tasviri tushirilgan to‘rtta bezakli idish Navoiy g‘azaliga bag‘ishlangan. U hali mavzuni o‘rganishni to‘xtatgani yo‘q va unga qaytishni rejalashtirmoqda. Muallif o‘rnatishning o‘zini boshqacha talqin qiladi. “Bu dunyoga uch toifa odamlarning nigohi bilan qarash haqidagi asar. Ba‘zilar sichqonchanning teshigidan tashqariga qarab, o‘zlarini va dunyoni hukm qiladilar. Ular qanday yashashni afzal ko‘radilar. Boshqalar esa tog‘lar balandligidan atrofqa qarashadi va o‘zlarini, atrofidagi dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qilishadi. Uchinchi tur - dunyoga qush nazari bilan qaraydigan odamlar. Ularning kuchi dunyoni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishlarida va insonparvarlik maqsadlari bilan yashashlaridadir. Taraqqiyot etayotgan ana shu insonlardir”, - deydi Nazira Qo‘ziyeva.

-Norozilikni ifodalovchi san‘at.

Graffiti va strit art – siyosatni yoki amaldorlarni tanqid qiluvchi karikatura yoki devoriy suratlar

O‘zbekistonda bugun strit-art yo‘nalishi bo‘yicha no‘malum rassom,

“inkuzart” dastxati ostida ijod qilib keluvchi grafik rassomni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Uning ijodi keng mushohadaga chorlovchi, chuqur ma‘no mazmunga

ega ko'plab sohalarni qamrab oladi. Rassomni turli hil yo'nalishlardagi muammolar haqidagi o'z fikr mulohazalarini devoriy grafik suratlar orqali namoyish etuvchi eko faol, siyosiy tanqidchi, ijtimoiy himoya vakili, vatanparvar rassom deyish mumkin. Rassom o'z shaxsiyatini, kimligini oshkor qilmaydi lekin, uning asarlaridan ma'lumki, u, jamiyatdagi o'zgarishlarga, nohaqliklar va zo'ravonliklarga befarq emas.

Zamonaviy san'at bo'ladimi yo an'anaviy san'at turi bo'ladimi eng asosiysi bugungi kunda O'zbekistonda tasviriy san'at sohasi jadal rivojlanayotgani va unga bo'lgan talabning ortib borayotganligi kishini quvontiradi. Buning asosiy targ'ibotchisi va tashfiqotchisi sifatida mamlakatimizda o'tkazilib kelinayotgan ko'plab halqaro va Respublika miqyosidagi festival, bennali va ko'rgazmalarni aytishimiz mumkin. Aynan mana shu kabi madaniy tadbirlar ko'plab yosh iqtidorlarni kashf qilmoqda. Ular esa o'z o'rnida zamonaviy san'at talqinida milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarimizni tarannum etib kelmoqdalar.

**Адабиётлар:**

1. Xujaniyozov R. Bugungi rangtasvir san'atiga nazar. //K.Behzod nomidagi MRDI AXBOROTNOMASI-Toshkent.: 2022. -№ 3(9). -46-b.
2. Ф.Аҳмадалиев. Альбом. Москва: Издательство "Galart". 2016. 183 b.
3. К.Г.Усмонов.Ж. асарларида маънавий гедонизм. ЭГО ИХ тўплами. Тошкент: Ўзбекистон Бадиий Академияси. 2012.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D1%88%D1%83%D1%82,%D0%94%D0%B6%D0%BE%D0%B7%D0%B5%D1%84>

INNOVATIVE  
ACADEMY